

TO'LQIN JABBOROV TAJRIBALI RAXBAR VA FIDOYI DAVLAT ARBOBI

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi

ilmiy xodimi: **G'ulomjonova Odina**



To'lqin Jabborov

Kirish

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan davlat va jamoat arboblarning hayoti hamda faoliyatini o'rganish, ularning boy amaliy tajribasini yoritish va kelajak avlodga yetkazish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi turmush darajasini yuksaltirish hamda keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda fidokorona mehnat qilgan rahbarlarning xizmatlarini ilmiy asosda tadqiq etish mamlakatimizning yaqin tarixini xolis yoritishga xizmat qiladi. Namangan viloyati mustaqillik yillarida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan jadal rivojlangan hududlardan biri hisoblanadi. Bu taraqqiyotda turli davrlarda faoliyat yuritgan rahbarlarning tashabbuskorligi, tashkilotchilik salohiyati va uzoqni ko'ra bilish qobiliyati muhim omil bo'ldi. Ana shunday rahbarlardan biri To'lqin Otaxonovich Jabborov bo'lib, u viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, shaharsozlik,

infratuzilmani rivojlantirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish hamda aholi farovonligini oshirish yo'lida samarali mehnat qildi. To'fqin Jabborovning davlat boshqaruvidagi ko'p yillik faoliyati davomida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy loyihalar nafaqat Namangan viloyati, balki mamlakat taraqqiyotida ham muhim o'rin tutdi. U rahbar sifatida xalq manfaatlarini ustuvor deb bilgan, hududni kompleks rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari bilan el-yurt hurmatini qozongan davlat arboblardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur maqolada To'fqin Otaxonovich Jabborovning hayot yo'li, davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati, Namangan viloyati rivojiga qo'shgan hissasi hamda amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. To'fqin Otaxonovich Jabborov O'zbekistonning tajribali davlat va jamoat arboblardan biri bo'lib, u 1950-yilda Namangan viloyatining Uchqo'rg'on tumanida tug'ilgan. Mehnatsevarligi, tashkilotchilik qobiliyati va mas'uliyatli rahbar sifatidagi fazilatlari tufayli davlat boshqaruvi tizimida yuqori lavozimlarda samarali faoliyat olib borgan. 1996–2004-yillarda Namangan viloyati hokimi lavozimida ishlagan To'fqin Jabborov viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shdi. Uning rahbarligi davrida qishloq xo'jaligi, qurilish, sanoat, transport va infratuzilma sohalarida muhim islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, irrigatsiya tizimlarini takomillashtirish hamda dehqon va fermerlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

To'fqin Jabborov rahbarlik qilgan yillarda Namangan shahrining qiyofasi sezilarli darajada o'zgardi. Yangi yo'llar, ko'priklar, ijtimoiy obyektlar, sport inshootlari va madaniyat maskanlari bunyod etildi. Jumladan, «Pahlavon» sport majmuasi hamda shaharning ramziga aylangan favvora majmuasi foydalanishga topshirildi. Bu bunyodkorlik ishlari viloyat aholisi turmush sifatini yaxshilashga xizmat qildi. U 2000–2005-yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati sifatida ham faoliyat yuritib, mamlakat taraqqiyoti yo'lida qabul qilingan muhim qonunlar va islohotlarda ishtirok etdi. Shuningdek, 2001-yildan O'zbekiston ayollar futboli assotsiatsiyasi raisi sifatida sport sohasining rivojlanishiga ham munosib hissa qo'shdi. To'fqin Jabborov o'zining kamtarligi, halolligi, mehnatsevarligi va xalq manfaatlarini ustuvor deb bilishi bilan

ko'pchilikning hurmatiga sazovor bo'lgan. U rahbar sifatida har bir qarorini xalq farovonligi va hudud taraqqiyotiga qaratishga intilgan. 2023-yil 4-oktabr kuni To'fqin Otaxonovich Jabborov 73 yoshida vafot etdi. U qoldirgan boy tajriba, amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari va el-yurt ravnaqi yo'lidagi xizmatlari Namangan viloyati tarixida munosib o'rin egallaydi. Uning hayoti va faoliyati bugungi avlod uchun vatanparvarlik, fidoyilik va mas'uliyat timsoli bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. **Yangi O'zbekiston strategiyasi**. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Karimov I.A. **Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch**. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. **Namangan viloyati hokimligi arxivi**. To'fqin Otaxonovich Jabborov faoliyatiga oid hujjatlar va materiallar.